



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба

чоп этилади.

Ўзбекистон худудида

тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,

Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Кнарлик Карапетовна Арабян, Дилбар Хасановна Асланова, Мария Валерьевна Рубель Развитие предпринимательского мышления: опыт платформы системного развития «Бизнес созидание»	5
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Обид Мамаюнусович Пардаев Креатив иқтисодиёт индустриясининг мазмуни ва унинг назарий масалалари	10
Дилдора Собиржонова Джураева Пути повышения уровня жизни населения в Республике Узбекистан: теоретико-методологический анализ и практические рекомендации	19
G'olib Sultonmurodovich Mustafoyev, Sabina Baxtiyor qizi Xudoyberdiyeva Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy omillar	24
Аскар Хайдарович Джумаев Хулқ-атвор иқтисодиётининг қисқача мазмун-моҳияти, аҳамияти ва истиқболлари	28
Анвар Нематович Холиқулов Сервис фаолияти маданияти тушунчасининг назарий талқини	31
ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ	
Комил Бахрамович Уразов, Мадина Шайманкуловна Хушмуродова Тенденции развития электронной торговли в Узбекистане	35
Dilafroz Marufovna Vofaxojayeva Tibbiyot turizmini rivojlantirishda raqamlashtirishning o'rnini	39
Наргиза Музафаровна Бабаева Инновацияларнинг Ўзбекистон иқтисодий ривожланишидаги роли	45
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Muxitdin Abduxamidovich Aynakulov Agroklasterni tashkiliy jihatdan optimallashtirish negizidagi kooperatsion aloqa usullari, yo'nalish va mexanizmlari	50
Umar Xudayberdiyev, Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva O'zbekistonda go'sht yetishtirishdagi muammolar va ularning yechimi	53
Boburmirzo Botirovich Abduvaxobov Sutni qayta ishlash korxonalarida ta'minot zanjiri tizimining tashkiliy mexanizmini takomillashtirish	56
G'ayrat Ablakulovich Ibragimov, Diyora O'tkir qizi Toshqulova, Shaxnoza G'ayrat qizi Ablakulova Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda suv resurslaridan foydalanishning o'rnini	60
Akhror Abdihakimovich Shermatov The importance of intellectual capital in manufacturing enterprises in the economy	64
Barno Asatullojevna Mardanova Sut mahsulotlari ta'minot zanjiri: muammolar, imkoniyatlar va yechimlar	69
Eldor Toshtemirovich Xamdorov, Shuhrat Saidahmadovich Sharifov O'zbekiston qishloq hududlarida maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish	74
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Munavvar Farxod qizi Axrorova Samarqand viloyatida tibbiy xizmatlarni davlat-xususiy sherikchiligi asosida takomillashtirishning istiqbollari	77
Sanjar Nasriddinovich Nazarov Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa-axbarotlashtirish xizmatlarini tashkiliy mexanizmini takomillashtirish	82

4. Pardayev M.K. va boshqalar. Savdo iqtisodiyoti muammolari. O‘quv qo‘llanma T.: “Iqtisod-moliya” 2016-yil, 504 b.
5. Xudayberdiyev U.X, Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishi va muammolari. Monografiya. Samarqand , Sam ISI bosmaxonasi, 2020-yil. 124 bet.
6. vvv. stat.uz.

<p>У.Худайбердиев, М.Худойбердиева Проблемы и решения в производстве мяса в Узбекистане</p>	<p>U.Khudayberdiyev, M.Hudoyberdiyeva Problems and solutions in meat production in Uzbekistan</p>
<p>Аннотация. В статье описывается тот факт, что производство мяса в нашей стране увеличивается с каждым годом, но в связи с ростом населения и доходов увеличивается спрос на мясо, что приводит к росту цен. В статье подчеркивается необходимость оптимизации видов мяса и увеличения количества дешевых и диетических видов. Указаны пути дальнейшего увеличения производства мяса.</p> <p>Ключевые слова: продукты питания, мясная продукция, крупный рогатый скот, овцы и козы, пастбища, многолетние растения, поголовье скота, территории.</p>	<p>Abstract. The article describes the fact that meat production in our country increases every year, but due to population and income growth, the demand for meat increases, which leads to higher prices. The article emphasizes the need to optimize meat types and increase the number of cheap and dietary types. The ways to further increase meat production are indicated.</p> <p>Keywords: food, meat products, cattle, sheep and goats, pastures, perennials, livestock, territories.</p>

Boburmirzo Botirovich Abduvaxobov – SamISI tayanch doktoranti,

SUTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA TA’MINOT ZANJIRI TIZIMINING TASHKILY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotasiya. Ushbu tadqiqot ishida sutni qayta ishlash korxonalarida ta’minot zanjiri tizimining samaradorligi, mavjud tashkiliy mexanizmlar va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari o‘rganilgan. Korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda ta’minot zanjirining muvofiqlashtirilgan va samarali ishlashi muhim ahamiyatga ega ekani asoslab berilgan. Taklif etilgan tashkiliy mexanizm modeli ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlash va resurslardan oqilona foydalanishni ko‘zda tutishi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: sut sanoati, ta’minot zanjiri, tashkiliy mexanizm, logistika, qayta ishlash korxonalari, xom ashyo ta’minoti, ishlab chiqarish jarayoni, mahsulot harakati.

Kirish. Sut mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni qayta ishlash oziq-ovqat sanoatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabining ortib borishi bilan birga, mahsulot sifati, yetkazib berish tezligi va logistika tizimining barqarorligi ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, sut tez buziluvchan mahsulot bo‘lganligi sababli, ta’minot zanjirining har bir bo‘g‘ini mukammal tashkillashtirilishi lozim.

Ta’minot zanjiri faqat ishlab chiqaruvchidan xaridorgacha bo‘lgan oddiy yo‘l emas, balki bir necha ishtirokchilar – fermer xo‘jaliklari, transport xizmatlari, saqlash omborlari, qayta ishlash korxonalari, va sotuv tarmoqlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan tizimni anglatadi. Mazkur ishda aynan shu tizimni mukammallashtirish, uning har bir bo‘g‘inini samarali boshqarish orqali raqobatbardoshlikni oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Qayta ishlash sanoati korxonalarida ta’minot zanjiri bilan bog‘liq masalalari va ulardagi muammolarni bartaraf qilish bilan bog‘liq ishlar, ularni bartaraf qilish yo‘llari juda muhimdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 26-apreldagi “Respublikada go‘sh, jun va sut yo‘nalishidagi mayda shoxli mollarni ko‘paytirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-224-son Qarori ham aynan sutni qayta ishlash korxonalarida ozuqa bazalarini takomillashtirish, xom ashyoni saqlash, uni yetkazib berishda ta’minot zanjirini optimallashtirish masalalariga bag‘ishlangan [1].

Qayta ishlash sanoatida ayniqsa sutni qayta ishlash kichik korxonalar tomonidan amalga oshirilishi tabiiy holdir. Zero, sut xom ashyosi sifati tez buziladigan xom ashyo tarkibiga kirishi

bilan bog‘liq. Shu sababli ushbu sutni qayta ishlash korxonalarida xom ashyo va tayyor mahsulotning harakatini optimallashtiruvchi ta‘minot zanjiri muammosini bartaraf qilish ishimizning dolzarbliligini oshiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sutni qayta ishlash jarayonlarida olimlar tomonidan ularning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda ta‘minot zanjiri tizimini joriy etish, ularning tashkiliy mexanizmlari birinchi navbatda shakllantirilishi lozim.

MDH mamlakatlari olimlaridan I.Poleshnika ham o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarida sutni qayta ishlash korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishda ta‘minot zanjirini boshqarish mavzusida ishlar olib borib, sut xom ashyosini qayta ishlash jarayonida xom ashyoni qabul qilish va saqlash jarayonlarini takomillashtirish orqali ta‘minot zanjirining xususiyatlarini ochib beradi [2].

Yana bir MDH olimi A.J.Duysebayevning tadqiqotlarida mahsulot raqobatbardoshligini ta‘minlashda sut sanoati korxonalarini strategik boshqarishni takomillashtirish masalalariga jiddiy e‘tibor qaratganlar. Olimning aytishicha sut mahsulotlari tez buziladigan mahsulotlar ekanligini hisobga olsak, ularni xom ashyoni yig‘ishda, uni qayta ishlash va tashish masalalarida logistika masalalariga urg‘u berishni ta‘kidlab o‘tganlar [3].

Yana bir olim E.A.Boldireva o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida sut sanoati korxonalarini kompleks rivojlantirishni takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bo‘yicha ishlar olib borgan. Sut mahsulotlarini qayta ishlashda eng kerakli jihat sifatida ta‘minot va uning shakllanishi bosqichlari to‘g‘risida muhim jihatlarni yoritib berganlar [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirish va ilmiy natijalarga erishishda adabiyotlarning qiyosiy tahlili, statistik ma‘lumotlar tahlili, ta‘minot zanjirini samarali ishlash tamoyillari, induksiya va deduksiya, miqdor va sifat, ekspert tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi olimlarning fikr va mulohazalari, izlanishlarini o‘rganish natijasida tahliliy qismlarni ham amalga oshirish, tadqiqot ishimizning dolzarbliligi va natijadorligini oshiradi.

Ta‘minot zanjiri – bu mahsulot yoki xizmatni iste‘molchigacha yetkazish jarayonida ishtirok etadigan barcha faoliyat va subyektlarning kompleks tizimidir. Ushbu tizimga xom ashyo yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, logistika xizmatlari, saqlash va realizatsiya tarmoqlari kiradi. Sut sanoati kontekstida esa ta‘minot zanjiri har qachongidan ham muhim, chunki u nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki mahsulot sifati va iste‘molchilarga tez yetkazib berish bilan chambarchas bog‘liq.

Ta‘minot zanjirining tashkiliy mexanizm – bu ta‘minot zanjiri ishtirokchilarining faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi boshqaruv vositalari majmuidir. U quyidagilardan tashkil topadi:

- Normativ-huquqiy asoslar;
- Institutsional tuzilmalar (yirik qayta ishlovchi korxonalar, fermer uyushmalari, kooperatsiyalar);

- Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar;
- Boshqaruv va muvofiqlashtirish tizimi (rejalashtirish, monitoring, logistik boshqaruv).

Quyidagi tamoyillar sut sanoatida ta‘minot zanjirining samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun muhim.

- **Moslashuvchanlik** – mavsumiylik va talab o‘zgarishlariga moslasha olish;
- **Integratsiya** – barcha ishtirokchilar o‘rtasida axborot va resurs almashinuvi;
- **Tezkorlik** – mahsulotni imkon qadar qisqa muddatda iste‘molchiga yetkazish;
- **Sifat va xavfsizlik** – sanitariya, gigiyena va ISO standartlariga muvofiq bo‘lish.

Samarqand viloyatida chorvachilik va sut ishlab chiqarish sohalarini qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘ini tashkil etadi. Viloyatda yirik va o‘rta hajmdagi sutni qayta ishlash korxonalarini faoliyat yuritmoqda, ularning ayrimlari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan bo‘lsa-da, ko‘pchilik korxonalar hali to‘liq avtomatlashtirilmagan. Hozirda viloyatda ta‘minot zanjiri quyidagi bosqichlarda amalga oshirilmoqda:

Sut ishlab chiqaruvchilar (fermer va dehqon xo‘jaliklari) – sutning asosiy manbai;

Yig‘uv punktlari – xom ashyoning dastlabki yig‘ilishi va saralanishi;

Qayta ishlovchi korxonalar – pasterizatsiya, fermentatsiya, qadoqlash va saqlash;
Distribyutorlar va chakana savdo tarmoqlari – tayyor mahsulotning bozorga chiqishi.

1-jadval

Sutni qayta ishlash korxonalarida ta’minot zanjiridagi muammolar

№	Muammo	Izoh
1	Xom ashyo yetkazib beruvchilar tarqoqligi	Fermerlar va dehqonlar o‘zaro muvofiqlashtirilmagan, natijada logistika murakkab.
2	Sovutish zanjirining to‘liq yo‘qligi	Sut yig‘uv punktlarida muzlatkichlar yo‘qligi – sifatga salbiy ta’sir.
3	Axborot oqimining samarasizligi	Fermerlar va korxonalar o‘rtasida real vaqt ma’lumot almashinuvi mavjud emas.
4	Logistika tizimining eskirganligi	Transport vositalarining texnik holati past, yetkazish muddati cho‘zilmoqda.
5	Mahsulotlar sertifikatitsiyasi va sifati bo‘yicha uzilishlar	Yetkazilgan mahsulotlar har doim ham standartlarga javob bermaydi.

1-jadval ma’lumotlari asosida shuni aytish mumkinki, sutni qayta ishlash korxonalarida ta’minot zanjiridagi muammolarni bartaraf qilishda ta’minot zanjirini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqish orqali samarali hal qilish mumkin.

Shu sababli bunday tashkiliy tuzilmalarni ishlab chiqish orqali samaradorlikka erishish, boshqaruv tizimidagi xarajatlar kamayishiga erishish mumkin bo‘ladi. Bunday tashkiliy tuzilmani ishlab chiqish orqali sutni qayta ishlash korxonalarini uchun zaruriy holat deya baho berishimiz mumkin.



1-rasm. Sutni qayta ishlash korxonalarida ta’minot zanjiri tizimining tashkiliy mexanizmlari

Yuqorida keltirilgan rasm orqali shuni aytish kerakki, sutni qayta ishlash korxonalarida ta’minot zanjiri tizimining tashkiliy mexanizmlarini shakllantirish, uning imkoniyatlarini belgilab olish, xom ashyoni qayta ishlashda logistika va saqlash tizimlariga asosiy harakatni berish muhimdir.

Xulosa va takliflar. Sut sanoati O‘zbekiston, xususan, Samarqand viloyati uchun strategik ahamiyatga ega soha hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, viloyatda mavjud ta’minot zanjiri tizimi hali to‘liq ishlangan emas, logistika, axborot oqimi va boshqaruvda bir qator muammolar mavjud. SCOR modeli asosida yondashuv korxonalar faoliyatini tizimlashtirishga yordam beradi. Ta’minot zanjirini raqamlashtirish, institutsional jihatdan mustahkamlash va samarali tashkiliy mexanizm yaratish orqali korxonalar faoliyati sezilarli darajada samarador bo‘lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan xulosadan quyidagi takliflarni ishlab chiqamiz:

- Kooperatsiya asosida yagona ta’minot tizimini shakllantirish orqali fermer xo‘jaliklarini yagona uyushmaga birlashtirish va xom ashyo ta’minotini markazlashtirish orqali logistika

харajatlarini kamaytirish.

- Raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida har bir sut partiyasi harakatini kuzatuvchi IoT texnologiyalarini joriy qilish va axborot almashinuv tizimini (mobil ilova yoki veb-platforma) yaratish.

- Logistika infratuzilmasini yaxshilash imkoniyatida sovutkichli transport va saqlash punktlarini tashkil etish va mintaqaviy logistika markazini tashkil qilish orqali transportni optimallashtirish.

- Sifat va sanitariya nazoratini kuchaytirish, har bir ishlab chiqarish bosqichida laboratoriya nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish hamda ISO va HACCP kabi xalqaro sertifikatlarni olishni rag‘batlantirish.

- Tashkiliy boshqaruvni takomillashtirish natijasida SCOR modeliga asoslangan boshqaruv tizimini joriy qilish va ERP tizimlari yordamida resurslar va ishlab chiqarishni integratsiyalash.

- Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish asosida sut sanoati infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etish uchun imtiyozli kreditlar berish va davlat tomonidan monitoring tizimlari va platformalarga subsidiya ajratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 26-apreldagi “Respublikada go‘sh, jun va sut yo‘nalishidagi mayda shoxli mollarni ko‘paytirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-224-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-5983069>
2. Полешкина И.О. Управление цепями поставок как драйвер создания конкурентного преимущества компаний молочной сферы. Экономические и социальные перемены: фак, тенденции, прогноз 5 (47) 2016, 251-271 стр.
3. Гумниц Юрий Владимирович. Совершенствование организационных механизмов внедрения информационных технологий управления. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2011. 24 стр.
4. Болдырева, Елена Анатольевна. Организационно-экономический механизм совершенствования развития молочно-продуктового подкомплекса: На примере Оренбургской области. Диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.05, кандидат экономических наук. Оренбург, 2000.

<p>Б.Абдувахобов</p> <p>Совершенствование организационного механизма системы цепочки поставок на молокоперерабатывающих предприятиях</p> <p>Аннотация. В данном исследовании рассмотрены эффективность системы цепочки поставок на предприятиях по переработке молока, существующие организационные механизмы и направления их совершенствования. Утверждается, что скоординированная и эффективная работа цепочки поставок имеет важное значение для повышения конкурентоспособности предприятий. Предлагаемая модель организационного механизма направлена на обеспечение стабильности производства и рационального использования ресурсов.</p> <p>Ключевые слова: молочная промышленность, цепочка поставок, организационный механизм, логистика, перерабатывающие предприятия, поставка сырья, производственный процесс, движение продукции.</p>	<p>B.Abduvakhobov</p> <p>Improvement of the organizational mechanism of the supply chain system in milk processing enterprises</p> <p>Abstract. This research study examines the effectiveness of the supply chain system in milk processing enterprises, existing organizational mechanisms and areas for their improvement. It is argued that the coordinated and effective operation of the supply chain is of great importance in increasing the competitiveness of enterprises. It is noted that the proposed organizational mechanism model provides for ensuring production stability and rational use of resources.</p> <p>Keywords: dairy industry, supply chain, organizational mechanism, logistics, processing enterprises, raw material supply, production process, product movement.</p>
--	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.